



# SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## SAMARQAND VILOYATINING CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

*Dastlabki ma'lumot,  
2024-yil yanvar-iyul*



*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Tel. 66-235-65-80*

**Statistik ma'lumotlar** jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

## Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda



2024-yil 1-avgust holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni **11 432** ta bo'lib, shundan, yirik korxonalar soni **39** ta, kichik korxonalar va mikrofirmalar **11 393** tani tashkil etmoqda.

Shuningdek, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

**Chakana savdo aylanmasi** – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024-yilning yanvar-iyul oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **16 663,7** mlrd. so'mni, 2023-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan o'sish sur'ati **108,1** % ni tashkil etdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **2 424,3** mlrd. so'mni, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **14 239,4** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **114,0** %), shundan, uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 613,9** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **106,5** %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2023-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>16 663,7</b>	<b>108,1</b>
Samarqand sh.	5 826,3	108,5
Kattaqo'rg'on sh.	666,2	106,4
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	401,8	108,6
Bulung'ur	1 067,7	108,4
Jomboy	591,1	106,3
Ishtixon	645,5	108,9
Kattaqo'rg'on	635,8	105,3
Qo'shrabot	331,7	108,4
Narpay	823,8	105,6
Payariq	511,5	108,7
Pastdarg'om	560,8	105,4
Paxtachi	302,1	107,8
Samarqand	1 904,7	108,5
Nurobod	258,6	108,1
Urgut	1 653,1	109,2
Toyloq	483,0	109,1


2024-yilning yanvar-iyul oylarida 2023-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan viloyatning Urgut (**109,2** %), Toyloq (**109,1** %), Ishtixon (**108,9** %), Payariq (**108,7** %), Oqlaryo (**108,6** %), Samarqand (**108,5** %), Bulung'ur (**108,4** %) tumanlari va Samarqand shahrida (**108,5** %) chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati  
dinamikasi (yanvar-iyul)




So'nggi 5 yillikda (2020-2024-yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022-yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021-yilning mos davriga nisbatan **109,9 %** ni tashkil qildi.

2023-2024-yil uchun chakana savdo tovar aylanmasining o'sish  
sur'ati, oylar kesimida (foizda)



2024-yilning yanvar-iyul oylarida o'sish sur'ati **108,1 %** ni tashkil qildi.



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulush **Samarqand shahrida 35,0 %** bilan **5 826,3** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, **Nurobod tumani 1,5 %** bilan **258,6** mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023-yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.

*Hajmi, mlrd. so'm*


Samarqand sh.	5 826,3
Samarqand	1 904,7
Urgut	1 653,1
Bulung'ur	1 067,7
Narpay	823,8
Kattaqo'rg'on sh.	666,2
Ishtixon	645,5
Kattaqo'rg'on	635,8
Jomboy	591,1
Pastdarg'om	560,8
Payariq	511,5
Toyloq	483,0
Oqdaryo	401,8
Qo'shrabot	331,7
Paxtachi	302,1
Nurobod	258,6

## Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlari (foizda) (2024-yil yanvar-iyul)




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024-yilning yanvar-iyul oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **14 239,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **14,0** % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **85,5** % ni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi **2 424,3** mlrd. so'mni 2023-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **82,6** % ni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **14,5** % ulushiga to'g'ri keldi.




## Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda),

(2024-yil yanvar-iyul)




Yirik korxonalar



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Kattaqo'rg'on shahri (99,8 %), Narpay (99,5 %), Ishtixon (99,3 %), Jomboy (99,2 %), Oqdaryo (99,1 %) va Payariq (99,0 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 14,5 % ni tashkil etib, eng katta ulush Samarqand shahri (28,7 %) va Samarqand (31,2 %), Kattaqo'rg'on (5,9 %), Pastdarg'om (3,9 %) tumanlarida kuzatildi.

14,5 %



85,5 %



Yirik korxonalar



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



**Hududlar kesimida ma'lumot, ming so'mda**  
(2024-yil yanvar-iyul)

**Samarqand viloyati** 3 940,5

**Samarqand sh.** 9 910,3

**Kattaqo'rg'on sh.** 7 005,4

**Oqdaryo** 2 307,6

**Bulung'ur** 5 254,4

**Jomboy** 3 101,5

**Ishtixon** 2 327,8

**Kattaqo'rg'on** 2 154,6

**Qo'shrabot** 2 328,1

**Narpay** 3 608,3

**Payariq** 1 861,3

**Pastdarg'om** 1 456,3

**Paxtachi** 1 977,0

**Samarqand** 6 943,8

**Nurobod** 1 584,7

**Urgut** 2 940,4

**Toyloq** 2 172,9

2024-yilning yanvar-iyul oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **3 940,5** ming so'mni (2023-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **105,7 %**) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatgichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Samarqand shahri (**9 910,3** ming so'm), Kattaqo'rg'on shahri (**7 005,4** ming so'm) va Samarqand tumani (**6 943,8** ming so'm), Bulung'ur (**5 254,4** ming so'm) tumani hissasiga to'g'ri keldi.






Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunda dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati (2024-yil yanvar-iyul), foizda




**Dehqon (oziq-ovqat) bozori** – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd. so'm	2023-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2023-yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mlrd. so'm	2023-yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>1 613,9</b>	<b>106,5</b>	<b>649,0</b>	<b>103,6</b>	<b>964,9</b>	<b>108,5</b>
Samarqand sh.	141,1	115,6	112,6	100,7	28,5	2,8 m.
Kattaqo'rg'on sh.	181,9	90,7	73,3	85,5	108,6	94,5
<i>tumanlar:</i>						
Oqdaryo	92,7	101,6	6,2	80,5	86,5	103,5
Bulung'ur	145,3	101,8	54,3	169,5	91,0	82,2
Jomboy	114,5	105,2	63,2	87,3	51,3	140,6
Ishtixon	121,8	104,2	68,6	129,4	53,2	83,3
Kattaqo'rg'on	123,5	120,0	62,8	189,8	60,7	87,0
Qo'shrabot	62,9	112,1	9,6	49,8	53,3	144,7
Narpay	64,4	98,5	37,9	171,2	26,5	61,3
Payariq	121,3	106,9	33,8	76,8	87,5	126,1
Pastdarg'om	55,1	98,5	4,6	105,3	50,5	97,9
Paxtachi	71,0	110,9	28,2	119,0	42,8	106,1
Samarqand	62,2	132,9	9,1	157,4	53,1	129,5
Nurobod	74,4	112,0	10,4	41,7	64,0	154,6
Urgut	94,1	105,1	49,4	89,0	44,7	131,3
Toyloq	87,7	121,2	25,0	81,6	62,7	150,4


\* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi  
o'sish sur'atlari  
(2024-yil yanvar-iyul)














Hududlar kesimida uyushmagan  
savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm  
(2024-yil yanvar-iyul)



Viloyat bo'yicha 2024-yilning yanvar-iyul oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi **1 613,9** mlrd. so'mni, 2023-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **106,5** % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **649,0** mlrd. so'mni (**103,6** %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **964,8** mlrd. so'mni (**108,5** %) tashkil etdi.













2024-yilning yanvar-iyul oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **649,0** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**262,1** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

**Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi**  
(2024-yil yanvar-iyul)

<p><b>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</b></p> <p align="center"><b>262,1</b> mlrd. so'm</p>  <p align="right">40,4 %</p>	<p><b>Non va non mahsulotlari</b></p> <p align="center"><b>52,2</b> mlrd. so'm</p>  <p align="right">8,0 %</p>	<p><b>Don mahsulotlari (mash, loviya, guruch va boshqalar)</b></p> <p align="center"><b>81,9</b> mlrd. so'm</p>  <p align="right">12,6 %</p>
<p><b>Tovuq go'shti</b></p> <p align="center"><b>47,9</b> mlrd. so'm</p>  <p align="right">7,4 %</p>	<p><b>Quritilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yong'oq, bodom, pista va boshqalar)</b></p> <p align="center"><b>70,5</b> mlrd. so'm</p>  <p align="right">10,9 %</p>	<p><b>Tuxum</b></p> <p align="center"><b>29,1</b> mlrd. so'm</p>  <p align="right">4,5 %</p>
<p><b>Ziravorlar</b></p> <p align="center"><b>29,9</b> mlrd. so'm</p>  <p align="right">4,6 %</p>	<p><b>Sut va sut mahsulotlari</b></p> <p align="center"><b>24,9</b> mlrd. so'm</p>  <p align="right">3,8 %</p>	<p><b>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</b></p> <p align="center"><b>16,6</b> mlrd. so'm</p>  <p align="right">2,5 %</p>
<p><b>Tuzlamalar</b></p> <p align="center"><b>22,4</b> mlrd. so'm</p>  <p align="right">3,5 %</p>	<p><b>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</b></p> <p align="center"><b>11,5</b> mlrd. so'm</p>  <p align="right">1,8 %</p>	

2024-yilning yanvar-iyul oylarida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **964,8** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi **769,6** mlrd. so'm, qo'y va echkilar **144,8** mlrd. o'mni, otlar **45,0** mlrd. so'mni, parrandalar **5,4** mlrd. so'mni tashkil qildi.

**Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi**

<p><b>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</b></p> <p><b>430,1</b> mlrd. so'm</p>  <p>44,6 %</p>	<p><b>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</b></p> <p><b>218,1</b> mlrd. so'm</p>  <p>22,6 %</p>	<p><b>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</b></p> <p><b>121,4</b> mlrd. so'm</p>  <p>12,6 %</p>
<p><b>Qo'ylar</b></p> <p><b>113,2</b> mlrd. so'm</p>  <p>11,7 %</p>	<p><b>Otlar</b></p> <p><b>45,0</b> mlrd. so'm</p>  <p>4,7 %</p>	<p><b>Echkilar</b></p> <p><b>31,6</b> mlrd. so'm</p>  <p>3,3 %</p>
<p><b>Kurka, o'rdak, g'oz</b></p> <p><b>1,9</b> mlrd. so'm</p>  <p>0,2 %</p>	<p><b>Tovuqlar</b></p> <p><b>3,4</b> mlrd. so'm</p>  <p>0,3 %</p>	<p><b>Quyionlar</b></p> <p><b>0,062</b> mlrd. so'm</p>  <p>0,006 %</p>
<p><b>Qushlar</b></p> <p><b>0,059</b> mlrd. so'm</p>  <p>0,006 %</p>		

**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI  
SAVDO AYLANMASI  
(2024-yil yanvar-iyul)**

2024-yil 1-avgust holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni **2 875** tani tashkil etib, shundan, yirik korxonalar soni **9** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **2 866** tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so‘m	2023-yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>768,1</b>	<b>108,2</b>
Samarqand sh.	542,1	155,3
Kattaqo‘rg‘on sh.	15,8	111,9
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	4,9	115,9
Bulung‘ur	17,1	111,1
Jomboy	16,9	114,9
Ishtixon	4,8	114,3
Kattaqo‘rg‘on	9,0	114,7
Qo‘shrabot	7,8	115,7
Narpay	9,0	115,4
Payariq	6,7	111,9
Pastdarg‘om	50,5	110,8
Paxtachi	8,0	114,8
Samarqand	31,1	114,6
Nurobod	8,4	117,6
Urgut	15,8	111,3
Toyloq	20,2	11,3

2024-yilning yanvar-iyul oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi **768,1** mlrd. so‘mga yetdi. 2023-yilning mos davriga nisbatan **8,2** %ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining **87,3** % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri keldi.




## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot (2024-yil yanvar-iyul)

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>2 313,2</b>	<b>100,0</b>
Samarqand sh.	1 869,8	80,8
Kattaqo'rg'on sh.	18,4	0,8
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	19,8	0,8
Bulung'ur	6,5	0,3
Jomboy	19,0	0,8
Ishtixon	10,1	0,4
Kattaqo'rg'on	8,9	0,4
Qo'shrabot	2,5	0,1
Narpay	8,9	0,4
Payariq	13,3	0,6
Pastdarg'om	6,1	0,3
Paxtachi	5,9	0,3
Samarqand	164,2	7,1
Nurobod	1,1	0,05
Urgut	3,6	0,2
Toyloq	155,1	6,7


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Samarqand shahri (**1 869,8** mlrd. so'm), Samarqand (**164,2** mlrd. so'm) va Toyloq (**155,1** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi, (mlrd. so'm) (2024-yil yanvar-iyul)



2024-yilning yanvar-iyul oylarida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) **2 313,2** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **41,1** %ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **480,2** mlrd. so'm (o'sish sur'ati **2,2** m.), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi **1 833,0** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **129,1** %) tashkil qildi.


## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda






**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

## Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda (2024-yil yanvar-iyul)




Viloyat bo‘yicha 2024-yilning yanvar-iyul oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **12 043,3** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan **24,4** %ga o‘tdi.

## Savdo aylanmasi va ulushi



**Yirik korxonalar**



**Mikrofirma va kichik korxonalar**

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **6 796,3** mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2023-yilning mos davriga nisbatan **104,6** %ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **56,4** %ni tashkil qildi.

## ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK HAMDA KICHIK BIZNES KORXONALARINING SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

(2024-yil yanvar-iyul)

2024-yil 1-avgust holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni **3 012** tani tashkil etib, shundan, yirik korxonalar soni **30** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **2 982** tani tashkil qildi. Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar Nurobod (**223,4 m.**), Samarqand (**196,2 %**), Samarqand sh. (**165,6 %**), Pastdarg'om (**161,1 %**), Bulungur (**144,1 %**) va Toyloq (**141,5 %**) hududlarida kuzatildi.

	Jami mlrd. so'm	2023-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2023-yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirma- lar, mlrd. so'm	2023-yil yanvar – iyul oylariga nisbatan, foizda
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>12 043,3</b>	<b>124,4</b>	<b>5 247,0</b>	<b>165,0</b>	<b>6 796,3</b>	<b>104,6</b>
Samarqand sh.	8 135,7	131,1	4 289,3	165,6	3 846,4	106,5
Kattaqo'rg'on sh.	208,0	100,3	0,2	14,4	207,8	100,8
<i>tumanlar:</i>						
Oqdaryo	312,6	110,3	-	-	312,6	110,3
Bulung'ur	279,0	134,3	232,8	144,1	46,2	99,8
Jomboy	176,7	106,2	13,4	62,3	163,3	112,7
Ishtixon	81,4	103,7	-	-	81,4	103,7
Kattaqo'rg'on	236,0	103,0	-	-	236,0	103,0
Qo'shrabot	24,7	103,3	0,03	23,3	24,7	103,8
Narpay	97,2	93,4	0,214	53,2	97,0	93,5
Payariq	68,7	104,6	-	-	68,7	104,6
Pastdarg'om	486,9	117,8	160,2	161,1	326,7	104,0
Paxtachi	10,5	91,6	0,045	20,4	10,5	92,9
Samarqand	1100,4	129,6	356,7	196,2	743,7	111,5
Nurobod	70,6	133,7	21,1	223,4 m.	49,5	93,8
Urgut	331,0	96,2	-	-	331,0	96,2
Toyloq	423,9	97,0	173,1	141,5	250,8	79,7